

HANAFIY FIQHINING RIVOJLANISHIDA RADDU-L-MUHTOR” ASARINING AHAMIYATI

Tursunov Muxiddin Dovudovich

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi

“Islom tarixi va manbashunosligi IRCICA”

kafedrası 1-kurs tayanch doktoranti

tel: +998945261940

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada hanafiy mazhabining yetuk allomalaridan biri bo‘lmish Ibn Obidinning hayoti va ilmiy faoliyati haqida ma‘lumotlar keltiriladi. Shuningdek, allomaning fiqh ilmiga qo‘shgan hissasi haqida ham qisqacha ma‘lumotlar keltiriladi. Bundan tashqari alloma yozgan asarlar aynan hanafiy fiqhining rivojidagi tutgan o‘rni haqida ham ma‘lumotlar zikr qilingan.*

***Kalit so‘zlar:** Hanafiy fiqhi, Raddu-l-muhtor, mazhab, fiqh ilmi, tarix, Alloma Ibn Obidin, Nassamatul al-asxor ala sharhi Minor.*

Jahon ilm-fan rivojida islom sivilizatsiya va uning ilmiy yutuqlari alohida o‘rin tutib, ulardan bugungi kunga qadar jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy masalalarni hal etishda foydalanilmoqda. Bugungi globallashuv jarayoni ham zamonaviy ijtimoiy, axloqiy va moliyaviy masalalarga yechim topishda islom ilmlariga oid manbalardan foydalanishni taqozo etmoqda.

Ayni shu masalada islom ilmlari rivojiga ulkan hissa qo‘shgan XVIII-XIX asrlarda yashagan Ibn Obidin nomi bilan shuhrat qozongan faqih olimning ilmiy merosi alohida muhim o‘rin egallaydi. Shu jihatdan Ibn Obidinning “Raddu-l-Muhtor” asarida kelgan masalalar ham bugungi kun jamiyat hayotidagi diniy-ijtimoiy muammolarni yechishda qo‘llash mumkin bo‘lgan dolzarb asar ekanligini aytish mumkin.

Dunyoda shakllangan bir qator ilmiy-tadqiqot markazlarida islom manbalari va ilm sohalarini chuqur o‘rganish va asl mohiyatini ochishga e’tibor

qaratilayotgani ushbu turdagi manbalarning ilmiy ahamiyati yuqori ekanligidan dalolat qiladi. Mazkur ishda Qur'on ilmlari, hadis, kalom, fiqh, tasavvuf, islom tarixi, mantiq, balog'at, nahv kabi sohalarga oid manbalar mazmuni va ularning mualliflari borasidagi ma'lumotlarni tahlil etishga e'tibor qaratilib, jamiyatdagi ijtimoiy masalalarni hal etishda ulardan istifoda etishga alohida ahamiyat berilmoqda.

Shu nuqtai nazardan fiqh ulamolaridan biri – Ibn Obidinning fiqh ilmiga oid ilmiy merosini tadqiq etish, yuqoridagi tadqiqotlarning izchil davomi bo'lib xizmat qiladi. So'nggi yillarda O'zbekistonda diniy-ma'rifiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar bilan bir qatorda ajdodlar merosi va ulamolar hayoti va ularning ilmiy-ma'naviy merosini o'rganish hamda, uni jamoatchilikka yetkazishda keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Hanafiy fiqh ilmi rivojida o'ziga xos mavqega ega bo'lgan Ibn Obidinning hayotini o'rganish va islom ilmlariga oid ilmiy merosining diniy-ijtimoiy masalalarni hal etishdagi ahamiyatini ko'rsatib berish ushbu yo'nalishlardagi ishlarning amaliy natijasiga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2018-yil 16-apreldagi PF-5416-son "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" [<https://www.vaqf.uz/oz/promote/view/19>] gi farmonlari, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-iyundagi 519-son "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining kutubxona fondini xorijiy adabiyotlar bilan boyitish to'g'risida"gi qarorida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu ma'lumotlar muayyan darajada xizmat qiladi. Bundan tashqari 2017-yil 2-iyunda "Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" [PQ-

2774-SON 14.02.2017] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning qarori amalga oshirilayotgan ishlarning ko‘lamini yanada kengaytirib yubordi.

Ibn Obidinning hayoti va ilmiy merosi, G‘arb va Sharq sharqshunoslari, islomshunos olimlar tomonidan tadqiq etilib, bu bo‘yicha ilmiy maqolalar e‘lon qilingan. Ibn Obidinning asari bo‘yicha arab, urdu, fors, ingliz va turk tillarida olib borilgan tadqiqolarning salmog‘i yuqoridir. Misol tariqasida turkiyalik Mustafa Ulus o‘zining doktorlik ishida ham buni ta’kidlab o‘tgan. Bundan tashqari bugungacha bo‘lgan davrda ko‘plab xorijiy islomshunos olimlar va sharqshunoslar bu borada maqola va muhim ishlarni amalga oshirganlar.

Ibn Obidinning asarlariga kelsak, bizgacha yetib kelgan kitoblaridan eng mashhuri “Raddu-l- Muxtor ala Durrul Muxtor” (Adashganlarni tanlangan durlarga yo‘llovchi) hisoblanadi. Bundan tashqari, uning turli ilmlarga bag‘ishlangan “Raf‘ul anzor amma avrodahu al-Halabiy ala Durrul Muxtor” (Durrul Muxtorga Halabiy qo‘shgan narsalarga nazarlarni qaratish), “Nassamatul al-asxor ala sharhi Minor” (Minor sharhiga tong shabadalari), “Xoshiya alal Mutul” (Mutulga hoshiya), “Ar-Rohiqul maxtum” (Muhrlangan shinni), “Xavosh ala tafsiril Bayzoviy” (Bayzoviyning tafsiriga yozilgan hoshiya), o‘ttiz ikki risoladan iborat “Majma’atur rasoil” kabi asarlari mavjud.

Ibn Obidinning o‘g‘li Alouddin Muhammad ad-Dimishqiy (1828-1889) ham o‘z davrining taniqli faqihi sifatida ilmiy faoliyat olib borganlar. U islomning ilk zamonaviy konstitutsiyasi sifatida ko‘riladigan mashhur “al-Majallat al-adliya”ni tuzuvchilardan biri. U otasining tugallanmay qolgan “ar-Radd al-muhtor” asarini tugallab, “Qurratu uyun al-axyor”, deb nomlaganlar. “Nur al-iyzoh”ga “Me’roj an-najoh” nomli sharh bitganlar, shuningdek, sodda til bilan yozilgan “al-Hadiyyat al-aloiya” nomli fiqhiy asari ham bor.

Hanafiy mazhabida sermahsul ijod qilgan ulamolardan biri va ilmiy salohiyati bilan butun Mag‘rib va Mashriq olimlarini hayratga solgan Ibn Obidin 54 yil mobaynida nodir kitoblar va risolalarni o‘z muxlislariga taqdim etgan. Yozgan asarlari ilm sohiblari tomonidan yuksak e‘tirofga sazovor bo‘lgan. Ko‘plab ilmlarni hosil qilganidan keyin Ibn Obidin yanada ilmini ziyoda qilish

maqsadida Amr shayx bilan uchrashib, ilm o‘rgatishini so‘raydi. Amr shayx o‘zi bilgan barcha ilmlarni u kishiga o‘rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmad bin Zayni Dahlan al-Makkiy “Al-Fathul mubin fi fazoili Xulafa ar-roshidin” – Misr: „Matbaa al-Maymaniya” 1892. B.169.
2. Ashur Ali Imran “Azhariya” – Qohira: “Dilya” 2009. B. 174.